

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI
FAOLIYATI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI***Inoyatov Abdullo Xikmatilla o'g'li**Menejment va Zamonaviy texnologiyalar**Universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik sub'ektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishni takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, bunda O'zbekistonda raqamli platformalar asosida tadbirkorlik sub'ektlari eksportning rivojlanish holati va uning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, tadbirkorlik firmalari, mahsulot innovatsiyasi, elektron tijorat, innovatsion rivojlanish, raqamli platforma.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari eksportida axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan 30 yil ichida iqtisodiyot sohasida 500 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lsa, ularning asosiy qismi mamlakatda tadbirkorlik subyektlari va xususiy tadbirkorlik faoliyatining qonunchilik asoslarini mustahkamlash hamda sohani rivojlantirishga qaratildi. 2017-yil 1-apreldan boshlab, ro'yxatga olish tartib - taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz «Doing Business 2023» reytingida 2023-yil yakunlari bo'yicha 100 balldan 69,9 ball to'plab, 190 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi. O'tgan yilgi reytingga nisbatan mamlakatimiz 76-o'rindan 7-o'ringa ko'tarildi¹. Bu boradagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilashda tadbirkorlik subyektlarining o'rni kattadir.

Bugungi global raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon iqtisodiy munosabatlarning mazmuni, shakllari va mexanizmlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va raqamli platformalarning keng

¹www.doingbusiness.org – Jahon bankining metodologiyasiga ko'ra, yillik hisobot nashri.

tarqalishi natijasida tadbirkorlik faoliyati an'anaviy ishlab chiqarish va savdo jarayonlaridan chiqib, raqamli muhitga ko'chib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi turlicha talqin qilingan. Jumladan, D. Tapscott raqamli iqtisodiyotni axborot texnologiyalari asosida shakllangan yangi iqtisodiy tizim sifatida ta'riflab, unda bilim va ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanishini ta'kidlaydi². Nesterenco va Simchenko fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy modeli bo'lib, u tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi³.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasining zamonaviy tushunchasi 1995-yilda amerikalik olim N.Negroponte⁴ tadqiqotlari tufayli ilmiy muomalaga kirdi, u birinchi navbatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivojlanishi bilan bog'landi. Ushbu nuqtayi nazar AKTning jamiyat iqtisodiy hayotini raqamlashtirishga ta'sirining umumiy tushunchasini aks ettiradi va texnologik omilni o'rganilayotgan hodisaning ko'rinishini belgilaydigan asosiy hal qiluvchi omil sifatida tavsiflaydi. Ko'rib chiqilayotgan atamaning yanada keng tarqalishini Kanadalik tadqiqotchi D.Tampskott asarlarida kuzatish mumkin, u odamlarning iqtisodiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni "raqamli jamiyat" atamasi nuqtayi nazaridan tavsiflagan.

Shuningdek, N.Leyn⁵ "raqamli iqtisodiyot"ni savdo - sotiqni tashkil etishda ushbu o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan va uning elektron komponentining rivojlanishiga hissa qo'shadigan tizim sifatida ko'rib chiqadi. Xuddi shu davrda L. Marjgerio⁶ o'rganilayotgan hodisaning tarkibiy qismlariga aniqlik kiritdi (Internetning kengayishi; tovarlarni raqamli yetkazib berish; elektron tijorat; jismoniy tovarlarning chakana savdosi). Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning tuzilishi R. Kling va R. Lamb tomonidan tahlil qilingan bo'lib, ular elementar tarkib orasida quyidagi qismlarni aniqladilar: aralash raqamli mahsulotlar; raqamli texnologiyalar orqali yetkazib beriladigan mahsulotlar; IT-sanoat. Tarkibiy elementlarga nisbatan bu qarashlar qarama-qarshi bo'lmay, faqat mualliflar tadqiqotda turli mezon belgilaridan foydalanganliklarini bildiradi. Ushbu holat "raqamli iqtisodiyot" atamasining ko'p o'lchovlilikini ko'rsatadi. Ye. Brinolfson va B. Kaxin⁷ raqamli iqtisodiyotni boshqa tomondan ko'rib chiqib, uni iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan harakatlantiruvchi

² Tapscott D. *The Digital Economy*. – New York: McGraw-Hill, 2015.

³ Нестеренко Е.С., Симченко Н.А. Континуум формирования теоретико-экономического базиса развития цифровой экономики // Теоретическая экономика. – 2019. – №1.

⁴ Negroponte N. *Being Digital*. N. Y.: Knopf, 1995. P.243.

⁵ Lane N. Advancing the digital economy into the 21st century // *Information Systems Frontiers*. 1999. Vol. 1, No. 3. R. 317-320.

⁶ *The Emerging Digital Economy* / L. Margherio [et al.]. Washington, DC: Department of Commerce, 1999.

⁷ Kling R. IT and Organizational Change in Digital Economies: SocioTechnical Approach // *ACM SIGCAS Computers and Society*. 1999. Vol. 29, no. 3. R. 17-25. Brynjolfsson E., Kahin B. *Introduction. Understanding the Digital Economy*. Cambridge: MIT Press, 2000. R. 1-10.

kuch sifatida ta'riflagan.

Yuqoridagi yuritilgan nazariyalardan kelib chiqib **raqamli iqtisodiyot** – bu axborotni generatsiya qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning yangi usullari, shuningdek, raqamli kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan iqtisodiyot deb ta'riflaymiz. Raqamli iqtisodiyotning asosiy texnologiyalari katta ma'lumotlar (ular bilan ishlashning o'ziga xos ma'lumotlar va usullari), sun'iy intellekt, blockchain texnologiyasi, bulutli hisobot, kvant texnologiyalari, robototexnika, virtual xaqiqat va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishining muhim natijasi mavjud biznes modellarini o'zgartirish, mahsulotni yaratish, uni sotishda va xizmatlar ko'rsatishda vositachilarning rolini kamaytirishdir.

Yuqorida berilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda global miqyosda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida, iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tilson D., Lyytinen K., Sørensen C. Digital infrastructures: The missing IS research agenda. Information Systems Research, 2010. [1;2]
2. Bharadwaj A. et al. Digital Business Strategy: Toward a Next Generation of Insights. MIS Quarterly, 2013. Remane G., Hanelt A., Wiesboeck F., Kolbe L. Digital Maturity in Traditional Industries. Business Information Systems Engineering, 2017. [3;4;5]
3. Autio E. Digitalisation, Ecosystems, and Entrepreneurship. Small Business Economics, 2017. Nambisan S. Digital Entrepreneurship: Toward a Digital Technology Perspective. Entrepreneurship Theory and Practice, 2017. [6;7]
4. GSMA. The Mobile Economy Asia Pacific 2023 Report. 2023. [8]
5. Dabla-Norris E., et al. Digitalization and Productivity in Asia and the Pacific. IMF Working Paper, 2023. [9]
6. Vassilakopoulou P., Hustad E. Bridging the Digital Divide. Information Systems Journal, 2023. [10]
7. ITU (XEI). Measuring Digital Development – ICT Facts and Figures. 2019.[11]
8. Fredriksson T. E-commerce and Development Report. UNCTAD, 2022.[12]
9. OECD et al. Digital Economy Outlook. 2020.[13]